



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

"TO‘RTKO‘CHA" ROMANIDA AN‘ANAVIYLIK, MODERNIZM VA REALIZM TO‘QNASHUVI

Yarashova Dinora Dilshod qizi

Qarshi davlat universiteti adabiyotshunoslik
(o‘zbek adabiyoti) fakulteti 1-kurs magistranti

"Inson o‘zini qanchalik 'Ulug‘' deb bilmasin, taqdirning to‘rt ko‘chasi qarshisida u goho naqadar ojiz va 'qo‘li kalta' ekanini anglab yetadi. Eng katta fojia — bu o‘lim emas, balki tirik turib yaqinlarningning so‘lishini ko‘rishdir."

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning "To‘rtko‘cha" romani an‘anaviylik, modernizm va realizm tamoyillari asosida tahlil qilinadi. Asardagi markaziy fojia — O‘lmas Ulug‘, Ochil, Lola va O‘ktam aka, Erali og‘a kabi qahramonlar taqdiri yoritiladi. Maqolada ziyoli insonning ijtimoiy bo‘ronlar va o‘lim qarshisidagi "qo‘li kaltaligi", yaqinlarini asrab qola olmaslik iztirobi realistik bo‘yoqlarda ochib berilgan. Shuningdek, asardagi personajlar tizimi (Zafar aka, Rahmatjon aka, Volodya va b.) orqali jamiyatning ijtimoiy-ruhiy manzarasi tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: realizm, modernizm, an‘anaviylik, O‘lmas Ulug‘, fojia, ruhiy inqiroz, ziyoli qismati.

Abstract:

This article analyzes Ulugbek Hamdam's novel "To‘rtko‘cha" (The Crossroads) based on the principles of traditionalism, modernism, and realism. The central tragedy of the work is explored through the fates of characters such as Olmas Ulug,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ochil, Lola, Oktam aka, and Erali oga. The article depicts, in realistic colors, the "helplessness" of an intellectual in the face of social storms and death, as well as the agony of being unable to save loved ones. Furthermore, the social-psychological landscape of society is examined through the system of characters, including Zafar aka, Rahmatjon aka, Volodya, and others.

Keywords: realism, modernism, traditionalism, Olmas Ulug, tragedy, spiritual crisis, the fate of the intellectual.

Kirish

Bugungi o'zbek romanchiligi shunchaki voqeabandlikdan voz kechib, inson ruhiyatining tub-tubiga kirib borishga intilmoqda. Bu jarayonning yetakchi namoyandalaridan biri Ulug'bek Hamdamdir. Adibning "To'rtko'cha" romani milliy adabiyotimizdagi an'anaviy realizm bilan G'arb modernizmining o'ziga xos sintezi (uyg'unligi) sifatida adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Asar kitobxonni tashqi voqealar rivoji bilan emas, balki qahramonning ichki evrilishlari bilan hayratga soladi. Ulug'bek Hamdamning "To'rtko'cha" romani zamonaviy o'zbek adabiyotida uch xil dunyoqarash va adabiy uslubning kesishgan nuqtasi hisoblanadi. Muallif an'anaviy qadriyatlar, modernistik ruhiy iztirob va shafqatsiz hayotiy realizmni bitta badiiy matnda mahorat bilan to'qnashtiradi.

Asosiy qism: An'anaviylik, modernizm va realizm to'qnashuvi

Badiiy adabiyot — insonning ruhiy faoliyati mahsuli. Badiiy adabiyotni ruhiy faoliyat turlaridan biri deb atashga imkon beradigan narsa shuki, ijodkor o'zining "faoliyati" yo'naltirilgan predmetni (keng ma'noda borliqni) o'z ongida o'zgartiradi va badiiy obrazda aks ettiradi. Demak, "adabiyot dunyoni o'zgartiradi", degan gapni aynan tushunishimiz xato bo'ladi. Zero, adabiyot real



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

voqelikni bevosita emas, bilvosita — dunyoni o'zgartiruvchini, INSONni o'zgartirish orqali amalga oshiradi. O'zbek adabiyoti o'zbek kishisining o'ziga xos timsolini yarata olganda, o'z-o'zidan tabiiy ravishda jahon miqyosiga ko'tarila oladi. Chunki biz jahonda mavjud bo'lganimiz singari jahon ham bizda namoyondir. "Katta o'quvchi bo'lmagan joyda katta adabiyot bo'lishi mumkin emas",- degan ekan B. Pasternak. Bugungi o'zbek o'quvchisi tamomila o'zgardi. Garchi o'quvchilarning soni keskin qisqargan bo'lsa-da, sifati yaxshilandi, badiiy adabiyotsiz yashay olmaydiganlari qoldi. Asl adabiyotni yirik ijtimoiy qatlamlar, yirik tadbirkorlarni tasvirlamay turib ham, hatto, hech narsadan ham qilish mumkin. Hech narsaning inson ruhiyatidagi izlari qandayligini bilib qo'yadigan payt keldi. "Bo'shliq yo'qmi? Bo'lmagan gap! U yo'qlikka o'xshagan borliq",- deydi Ulug'bek Abdulvahobning «Yolg'izlik» qissasi qahramoni.

1. An'anaviylik: Milliy ildizlar va axloqiy o'zak Ulug'bek Hamdam "To'rtko'cha"da o'zbek xalqining ma'naviy olamini, oilaviy munosabatlar va milliy mentalitetga xos bo'lgan andisha, vijdon kabi tushunchalarni asarning poydevori qilib oladi. Qahramon — O'lmas Ulug'ning ruhiy qiynoqlari, uning halollik va e'tiqod borasidagi ikkilanishlari klassik adabiyotimizdagi "komil inson" g'oyasining zamonaviy talqinidir. Yozuvchi milliy qadriyatlarni shunchaki tasvirlamaydi, balki ularni zamonaviy dunyo muammolari bilan tosh-taroziga qo'yadi. Bu asardagi an'anaviylik chizig'idir.

2. Modernizm: Ong oqimi va ramzlar tili Asarning badiiy shakli esa butunlay modernistik xarakterga ega. Bosh qahramon **O'lmas Ulug'** — sof modernistik obraz. Uning ismidagi ramziylik, ichki monologlari va dunyoni anglashga bo'lgan metafizik intilishlari modernizmga xosdir. Asar qahramoni atrofidagi voqealarga shunchaki qaray olmaydi, ularga qarshi ich-ichidan "Isyon" qiladi. O'z savollariga javob qidiradi. Adolatsizliklar, nohaqliklarga ko'z yumib o'tolmaydi.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

• Modernizm bu yerda insonning "olomon ichidagi yolg'izligi" va o'zligini qidirishida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari qahramonning atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga befarq qarab tura olmasligi, ichki isyon va tashqi dunyodagi nohaqliklarga nisbatan ojizligi eng katta ziddiyat sifatida tasvirlangan. Zero, aytilganidek, eng katta kurash bu insonning o'zi bilan, o'z nafi bilan bo'lgan kurashdir.

• Lolaning ruhiy dunyosi va uning oxir-oqibat jinni bo'lib qolishi ham modernistik fojining bir ko'rinishi: go'zal va nozik ruhning iflos va shafqatsiz borliq bilan kelisha olmasligi natijasidir. Shuningdek, eskicha qarashlar ustun bo'lgan dunyoda sof muhabbatning haqiqiy fojiasi tasvirlangan.

Muallif an'anaviy xronologik bayon qilish usulidan voz kechib, quyidagi yangi uslublarni qo'llaydi:

• **Ong oqimi:** Roman voqealari O'lmas Ulug'ning miyasidagi betartib xayollar, o'tmish xotiralari va kelajak qo'rquvlari orqali beriladi. Kitobxon qahramon bilan birga uning ichki dunyosida "sayohat" qiladi.

• **Vaqt va makon (Xronotop) erkinligi:** Asarda vaqt chiziqli emas. Bir lahzada qahramon bolaligiga qaytishi, keyingi sahifada esa tushlar olamiga sho'ng'ishi mumkin. Bu usul inson xotirasi va ruhiyati vaqt qonunlariga bo'ysunmasligini ko'rsatadi.

• **Ramziylik:** "To'rtko'cha" — bu shunchaki qishloq yoki mahalla chorrahasi emas. Bu inson hayotidagi tanlov nuqtasi, ma'naviy chorrahadir. To'rt yo'l — to'rt xil taqdir va to'rt xil imkoniyat ramzi bo'lib keladi.

Sintez: Sharqona falsafa va G'arbcha ifoda "To'rtko'cha"ning eng katta yutug'i — undagi sintezdir. Ulug'bek Hamdam G'arb modernizmidan faqat "shakl"ni (metodlarni) oladi, lekin uning "mag'zi"ni (mazmunini) Sharqona falsafa bilan to'ldiradi. Masalan, qahramonning o'zligini izlashi G'arb ekzistensializmidagi



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

kabi mutlaq tushkunlik emas, balki tasavvufdagi "o'zni tanish orqali Haqni tanish" jarayoniga o'xshab ketadi. Bu uyg'unlik asarni ham milliy, ham umuminsoniy darajaga ko'taradi.

3. Jamiyatning turfa qiyofalari: Obrazlar silsilasi

"To'rtko'cha" romanida O'lmas Ulug' atrofidagi qahramonlar shunchaki fon emas, balki bosh qahramonning ichki dunyosini sinovdan o'tkazuvchi "ko'zgular"dir:

• **Rahmatjon aka va Egamqul aka:** Bu obrazlar romanda an'anaviy o'zbek mehnatkashi, hayotning past-balandini ko'rgan, o'z halol mehnati bilan kun kechiruvchi kishilar timsolidir. Ular orqali muallif xalqning sodda va samimiy qatlamini, ularning hayotga bo'lgan o'zgarmas qarashlarini ko'rsatadi. Rahmatjon akaning vafoti ham o'tkir realizmning yana bir yorqin namunasidir.

• **Zarqismchi Zafar aka:** Bu obraz romandagi eng ziddiyatli va ramziy qiyofalardan biri. "Zarqismchi" sifati uning xarakteriga ishora: u dunyo matohiga, boylikka va moddiyatga ruju qo'ygan toifaning vakili. Uning borligi O'lmas Ulug'ning ma'naviy izlanishlariga qarshi o'laroq, hayotning "yaltiroq" va aldanchi tomonlarini aks ettiradi.

• **Volodya:** Asarda o'zgacha bir dunyoqarash va madaniyat vakili sifatida namoyon bo'ladi. U orqali muallif turli millat va qarashlar to'qnashuvini, insoniy munosabatlarning chegara bilmasligini va ayni paytda begonalashuv tuyg'ularini mahorat bilan chizadi. Bundan tashqari bu obraz orqali yo'qolib borayotgan tilar va millat tanazzuli ham yorqin aks ettirilgan va mana shu obraz orqali yozuvchi millatni ogohlikka, g'aflat uyqusidan uyg'onishga da'vat etishni maqsad qilib qo'yadi.

• **Osiyo:** Asarda haqiqiy mardlik, jasorat, dadillik va eng asosiysi poklik timsoli sifatida keltirilgan. Bunda o'zi to'g'ri deb bilgan yo'lda taqdirning turli adolatsizliklari va zarbalariga qarshi kurashishga intilgan va ularga tik boqa olgan Alpomishning "Barchin"i desak adashmaymiz.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

“To‘rtko‘cha”dagi voqealar kechadigan joylar, qishloq havosi, odamlarning bir-biriga munosabati shunchalik hayotiy-ki, kitobxon o‘zini o‘sha muhitda his qiladi. Muallif inson tabiatidagi ziddiyatlarni — yaxshilik va yomonlik, olijanoblik va pastkashlikni (masalan, Zafar aka timsolida) hech qanday bo‘yoqlarsiz, boricha ko‘rsatadi.

Bu asar haqida Qozoqboy Yo‘ldosh shunday deydi: “Ushbu roman – millat hayotining ichida qaynayotgan shaxs o‘ylari va tutumlarining badiiy tasviri”.

Ulug‘bek Hamdam asarlari bugungi kunda allaqachon o‘z o‘quvchilarini topgan. Uning asarlari o‘quvchini tanlaydigan asarlardir. Ijodidan bahramand bo‘lmoqchi bo‘lgan o‘quvchida ma‘lum intellektual tayyorgarlik bo‘lishi kerak. Chunki “Ulug‘bek Hamdam asarlaridagi murakkab ramzlar uncha-muncha o‘quvchiga og‘ir tuyulishi hech gap emas. Eng muhimi shuki, Ulug‘bek Hamdam o‘quvchini faqat o‘zigagina xos bo‘lgan ruhiy olami bilan tanishtiradi. Ulug‘bek mavzu va uslub tanlashda, bayon va asar tuzilishida hech kimga taqlid qilmaydi. Hatto unda kimdandir ijodiy ta’sirlanish degan taqlidning nozik shaklini ham payqamaysiz”. Ulug‘bek Hamdam asarlarini mutolaa qilgan o‘quvchi o‘zbek adabiyotida shakl va ma‘nodagi yangilanishlardan yaxshi xabardor bo‘ladi.

Xulosa

Agar O‘lmas Ulug‘ xayollarda uchsa, realizm uni "to‘rtko‘cha"ning changiga va qoniga qorishtiradi. Asardagi realizm shunchalik og‘irki, u hatto modernistik falsafani ham sindirib yuboradi. Asar markazidagi bu uchta yo‘nalish bir-biri bilan to‘qnashganda, O‘lmas Ulug‘ning "qo‘li kaltaligi" yuzaga chiqadi. Modernistik o‘y-hayollar (Modernizm) an‘anaviy burchlarni (An‘anaviylik) bajarishga, ya‘ni yaqinlarini real o‘limdan (Realizm) asrab qolishga yetmaydi. Ismi "Ulug‘" bo‘lgan insonning bu qadar chorasiz qolishi — bu asardagi eng katta badiiy to‘qnashuvdir. "To‘rtko‘cha" — bu faqatgina sarlavhadagi chorraha emas, balki O‘lmas Ulug‘,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Lola, Ochil va Zafar akalar kesishgan taqdir chorrahasidir. Erali og‘aning duosi, Rahmatjon akaning halolligi va O‘g‘iloyning mehri bu chorrahada adashgan qahramonlarga ma‘naviy yo‘lchi bo‘lib xizmat qiladi. Ulug‘bek Hamdam mana shu qahramonlar galereyasi orqali kitobxonga zamonamizning butun bir ijtimoiy-ruhiy xaritasini taqdim etgan. Muallif hayotning "to‘rtko‘chasi"da adashib yurgan turli toifalarni shunday tasvirlaydi-ki, ularda jamiyatning og‘riqli nuqtalari ko‘rinadi. Evrilish, davrlar almashinuvi inson ongiga, ruhiga qanchalik va qay darajada ta‘sir qilganini mana shu asar qahramonlari hayoti orqali ko‘rishimiz mumkin. Unda keltirilgan dolzarb masala va muammolar orqali xalqning real hayoti tasviri achchiq haqiqatlarda aks etgan. Yana bir tomondan esa mana shu millatni “to‘rtko‘cha”ning o‘rtasida qay tomonga ketishni bilmay o‘rtada qolgan keyingi manzil qayer? Qaysi yo‘ldan borgan ma‘qul? Kelajakda bizni qanday kelajak kutmoqda degan savollarni oldinga tashlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdam, U. To‘rtko‘cha (roman). – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007. (yoki keyingi nashrlari).
2. Hamdam, U. Badiiy tafakkur tadrijlari. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2003.
3. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: "Fan", 2007.
4. Quronov, D. Mutolaa va idrok mashqlari. – Toshkent: "Akademnashr", 2013.
5. Yo‘ldoshev, Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006.